



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

TALABALARNING KIBERIJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIIY- PEDAGOGIK OMILLAR

Ishmuradov Bunyodjon Farxodovich

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi,

E-mail: bunyodjon8892@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada talabalarning kiberijtimoiylashuvining ijtimoiy-pedagogik mohiyati yoritilib, uning zamonaviy raqamli muhitdagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, kiberijtimoiylashuvning konstruktiv va destruktiv yo'nalishlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kiberijtimoiylashuv, talaba, raqamli muhit, raqamli identifikatsiya, raqamli kompetensiya.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА КИБЕРСОЦИАЛИЗАЦИЮ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье раскрывается социально-педагогическая сущность киберсоциализации студентов и анализируются её специфические особенности в современной цифровой среде. Также освещаются конструктивные и деструктивные направления киберсоциализации.

Ключевые слова: киберсоциализация, студент, цифровая среда, цифровая идентификация, цифровая компетенция.

SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS AFFECTING THE CYBERSOCIALIZATION OF STUDENTS

Abstract. The article highlights the socio-pedagogical essence of students' cybersocialization and analyzes its specific characteristics in the modern digital environment. It also reveals the constructive and destructive directions of cybersocialization.

Keywords: cybersocialization, student, digital environment, digital identity, digital competence.

KIRISH

Kiberijtimoiylashuvning asosiy muhiti virtual makon hisoblanadi. Uni insoniyat tomonidan yaratilgan va doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgan, noosferaning virtual tarmoqli axborot mujassamiga aylangan, o'zining "yashovchi-aholisi" va

kiberkommunikatsiyaning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan yangi hayot faoliyati makoni sifatida tavsiflash mumkin.

Zamonaviy "kiberijtimoiylashuv" fenomini V.A. Pleshakov, M.S. Chvanov, R.M. Aysina, S.V. Nikitina, S.N. Vereykina, A.M. Baliqina asarlarida o'rganilgan.

Hozirgi vaqtda "kiberijtimoiylashuv" fenomeni talabalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining asosiy omili sifatida turli fan sohalari olimlarining tadqiqot predmetiga aylanib bormoqda.

Xorijiy ijtimoiy psixologiyada "kiberijtimoiylashuv" atamasi ancha keng ma'noda qo'llaniladi. U insonning elektron kommunikatsiya madaniyatiga, shuningdek, kibermakondagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi qadriyatlar, me'yorlar va qoidalarga jalb etilishi bilan bog'liq hodisalar majmui sifatida talqin qilinadi.

Sotsiologiya fanlari doktori S.V. Bondarenko virtual olamda ijtimoiylashuvni foydalanuvchining kommunikatsiya texnologiyalari, axborot madaniyati, ijtimoiy navigatsiya, elektron savodxonlik, shuningdek, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va rollarga qo'yiladigan talablarni o'zlashtirish orqali elektron ijtimoiy-madaniy muhitga integratsiyalashuvi jarayoni sifatida talqin qiladi.

R.M. Aysina va A.A. Nesterova o'z tadqiqotlarida kiberijtimoiylashuvning ikki turini ajratib ko'rsatadilar:

Birinchisi, ijobiy kiberijtimoiylashuv – foydalanuvchining kibermakonni xavfsiz o'zlashtirishi, uning ko'plab afzalliklaridan to'laqonli foydalanishi hamda virtual muhitda egallangan foydali tajribani real hayotdagi muammolarni hal etishga tatbiq etishi bilan bog'liq jarayonlar majmuidir.

Ikkinchisi salbiy kiberijtimoiylashuv bo'lib, foydalanuvchining virtual kommunikatsiyalarga yuqori darajada jalb etilishi bilan bir qatorda, tarmoq resurslaridan foydalanishda o'zini o'zi boshqarish qobiliyatining pastligi, internet muhitidagi muloqot jarayonida deviant xulq-atvor andozalarining mavjudligi va/yoki

tajovuzkor tarmoq intervensiyalariga nisbatan yuqori darajadagi zaiflik bilan tavsiflanadi[1:49].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunga qadar talabalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvi muammosi T.V. Balanditseva, L.S. Elgina, V.V. Lagerev, M.G. Magomedova, E.V. Osipchukova, N.M. Smyslova kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, talabaning kiberijtimoiylashuvini faqat uning internet va raqamli texnologiyalardan foydalanishi bilan cheklab bo'lmaydi. Mazkur jarayon real va virtual ijtimoiy muhitlarning o'zaro ta'siri sharoitida yuzaga kelib, shaxsning ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar, identifikatsiyasi, kommunikativ strategiyalari va faoliyat shakllarining o'zgarishini qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, talabaning kiberijtimoiylashuvi real va virtual ijtimoiy tajribaning bir-birini mukammalashtiruvchi asosida amalga oshadigan, kommunikativ, axborot-kognitiv, motivatsion, identifikatsion va faoliyat-kompetensiyaviy o'zgarishlarni qamrab oluvchi pedagogik jarayon sifatida talqin qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi ta'rif kiberijtimoiylashuvni uch jihatdan tavsiflash imkonini beradi: birinchidan, uning ijtimoiy-kommunikativ jihatida virtual muloqot va ijtimoiy aloqalarni o'zlashtirishni; ikkinchidan, shaxsiy-rivojlantiruvchi jihatida qadriyatlar, identifikatsiya va kommunikativ strategiyalarning shakllanishini; uchinchidan, faoliyat-kompetensiyaviy jihatida raqamli muhitda mustaqil faoliyat yuritish, axborotni tanlash va qayta ishlash, hamkorlik qilish hamda raqamli mahsulotlar yaratish ko'nikmalarining rivojlanishini anglatadi.

Kiberijtimoiylashuv jarayoni talabaning bo'sh vaqtini tashkil etishga, axborotdan foydalanish va ta'lim olish tajribasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib kelishi natijasida dam olish va hordiq

chiqarishning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda virtual kontent iste'moli, onlayn muloqot, raqamli ko'ngilochar xizmatlar va interaktiv platformalar ham ommalashmoqda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining mazmuni tashkil etilishida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Internet resurslari mustaqil ta'lim, masofaviy o'qish, elektron kutubxonalar, ochiq ta'lim platformalari va turli raqamli kurslar orqali shaxsning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Internet muhiti talabaning ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishi va yangi qadriyatlarining shakllanishiga ham ta'sir etuvchi muhim ijtimoiylashtiruvchi makonga aylanib ulgurdi. Bugungi talabalar raqamli kontentlar orqali turli madaniyatlar bilan tanishib, ijtimoiy guruhlarda vaqtini o'tkazib virtual dunyoda yashashga qisman o'rganib qolishgan.

Natijada internet norasmiy ta'lim va ma'rifatning o'ziga xos platformasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Biroq mazkur jarayonda axborotning sifati, ishonchliligi va ijtimoiy mazmunini tanqidiy baholash qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki raqamli makonda foydali bilim bilan bir qatorda noto'g'ri, manipulyativ yoki destruktiv axborot ham mavjud.

Zamonaviy talaba hayotining muhim xususiyatlaridan biri axborotga asoslangan hayot tarzining tobora kuchayib borayotganidir. Talabaning kundalik faoliyati, kasbiy munosabatlari, ta'lim olishi, bo'sh vaqtini tashkil etishi va ijtimoiy aloqalarining sezilarli qismi raqamli vositalar bilan amalga oshmoqda. Bu esa talaba ijtimoiylashuvining an'anaviy mexanizmlariga qo'shimcha ravishda raqamli muhitda kechadigan yangi ijtimoiylashuv mexanizmlarini ham shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy real ijtimoiy muhitning stressogen omillari tobora ko'payib borayotgani talabaning virtual makonga munosabatini tushunishda muhim omil sifatida qaralishi mumkin. Yuqori raqobat, tezkor hayot sur'ati, ijtimoiy va kasbiy talablarning ortishi, doimiy axborot oqimi hamda shaxs oldidagi turli mas'uliyatlar psixologik zo'riqishni kuchaytirishi mumkin. Bunday sharoitda virtual makon ayrim

talaba-yoshlar uchun kundalik hayot bosimidan vaqtincha uzoqlashish, dam olish va o'zini erkinroq his qilish imkonini beruvchi muhit sifatida qabul qilinadi.

Talabaning virtual olamning virtual ijtimoiylashtiruvchi muhitidagi faolligi uning faqat tomoshabin, o'quvchi yoki tinglovchi sifatidagi ishtiroki bilan cheklanib qolmaydi. U jarayonlarni mustaqil ravishda tashkil etishi, ularga faol qo'shilishi va sodir bo'layotgan voqealarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xayoliy, fantastik olamning real hayot qonuniyatlari asosida faoliyat yuritishi bilan uyg'unlashuvi virtual dunyoni talaba uchun nihoyatda jozibador qiladi.

Talabaning kiberijtimoiylashuvi jarayonida virtual muhit uning faqat axborot iste'molchisi sifatidagi ishtiroki bilan cheklanib qolmaydi. Zamonaviy raqamli platformalar talabaga kommunikatsiya qilish, ta'lim olish, ijodiy faoliyat yuritish, ijtimoiy guruhlariga qo'shilish, o'z fikrini ifodalash va turli ijtimoiy rollarni sinab ko'rish imkonini beradi. Shu jihatdan kiberijtimoiylashuv talabaning raqamli muhit bilan faol o'zaro ta'siri jarayonida kechadigan ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda talabalar kiberijtimoiylashuvi turli funksional raqamli muhitlarda amalga oshmoqda. Xususan, Telegram va Discord kabi kommunikativ platformalar, Instagram, TikTok va YouTube kabi ijtimoiy media hamda kontent platformalari, onlayn o'yinlar, Moodle, Google Classroom va boshqa elektron ta'lim platformalari ta'lim, muloqot, hamkorlik va ijtimoiy tajriba almashishning muhim vositalariga aylangan. Shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan zamonaviy vositalarning ta'lim, ijodkorlik, axborot izlash va kommunikatsiya jarayonlariga kirib kelishi talabaning raqamli muhitdagi faoliyat shakllarini yanada kengaytirmoqda.

Mazkur platformalarning har biri talabaning kiberijtimoiylashuviga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ijtimoiy media platformalarida talaba o'zini namoyon etish, turli ijtimoiy guruhlar bilan tanishish va jamoatchilik fikriga munosabat bildirish tajribasini egallaydi. Onlayn o'yinlar va virtual jamoalarda hamkorlik, strategik fikrlash, rolli xatti-

harakatlar va guruhliy o'zaro ta'sirning turli shakllari shakllanishi mumkin. Virtual personajlar va raqamli identifikatsiya ham ushbu jarayonning muhim jihatlaridan biridir. Talaba avatar, profil, nickname yoki boshqa raqamli belgilar orqali o'zining virtual "Men"ini shakllantiradi va namoyon etadi. Bunday raqamli identifikatsiya shaxsga o'zining turli jihatlarini sinab ko'rish, yangi kommunikativ strategiyalarni o'zlashtirish va muayyan ijtimoiy guruhlariga mansubligini ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, virtual identifikatsiya real shaxsiy identifikatsiyadan keskin ajralib ketgan holatlarda shaxsning o'zini anglash jarayonida muayyan ziddiyatlarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy talabanning kiberijtimoiylashuvini alohida bir internet platformasi yoki texnologiyasi bilan bog'lash to'g'ri emas. U kommunikativ platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, ta'limga oid raqamli muhitlar, virtual hamjamiyatlar, onlayn o'yinlar va sun'iy intellekt vositalarini o'z ichiga oluvchi ko'p komponentli raqamli makonda amalga oshadi. Bu muhitlarning ijtimoiylashtiruvchi ta'siri esa ulardan foydalanish maqsadi, davomiyligi, mazmuni, foydalanuvchining raqamli savodxonligi va real ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati kabi omillarga bog'liq.

A.V. Mudrik ta'kidlaganidek, kompyuter o'yinlari foydalanuvchiga o'zini ideal obraz sifatida his qilish imkonini berishi mumkin[2:257]. Shu nuqtayi nazardan, virtual personaj ayrim hollarda shaxsning o'zida mavjud bo'lmagan yoki yetarlicha rivojlanmagan sifatlarni virtual faoliyat orqali sinab ko'rish vositasiga aylanishi mumkin. Biroq virtual identifikatsiyaning real shaxsiy identifikatsiyadan keskin ajralib ketishi yoki virtual muhitning real hayotdagi muammolardan qochish vositasiga aylanishi kiberijtimoiylashuvning destruktiv yo'nalishlarini kuchaytirishi ehtimolini ham yuzaga keltiradi. Demak, virtual personaj va raqamli "men"ni kiberijtimoiylashuvning mustaqil mazmuni sifatida emas, balki uning identifikatsion komponentini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Biroq kiberijtimoiylashuvni faqat xavf va muammolar doirasida talqin qilish ham ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Axborot-

kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talaba faoliyatining mazmunini o'zgartirib, yangi bilim, ko'nikmalarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Raqamli muhitda talaba axborotni mustaqil izlash, tanlash va qayta ishlash, masofadan hamkorlik qilish, virtual jamoalarda ishlash, raqamli mahsulotlar yaratish va o'z faoliyatini onlayn tarzda boshqarish kabi yangi kompetensiyalarni egallamoqda.

Shu jihatdan kiberijtimoiylashuvning ijtimoiy-pedagogik salohiyati uning shaxsni raqamli jamiyat hayotiga tayyorlash imkoniyatida namoyon bo'ladi. Internet muhiti to'g'ri tashkil etilgan taqdirida ta'lim va tarbiya jarayonining qo'shimcha resursiga aylanishi, mustaqil ta'limni rag'batlantirishi, ijodkorlikni rivojlantirishi, ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi va turli guruhlar o'rtasidagi muloqotni kuchaytirishi mumkin.

Shu sababli ta'lim tizimida internet imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish alohida ahamiyatga ega. Pedagoglar va ta'lim muassasalari ma'muriyati tematik veb-resurslar, virtual muhokama klublari, forumlar, interaktiv o'quv materiallari, ta'limga oid o'yinlar, videomateriallar va boshqa raqamli vositalardan foydalanish orqali talabalarning nafaqat bilim olish, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishlari mumkin.

Demak, internet muhiti zamonaviy pedagogik faoliyat uchun bir vaqtning o'zida ta'lim, muloqat, tarbiyaviy va ijtimoiylashtiruvchi makon vazifasini bajarmoqda. Uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kiberijtimoiylashuvning konstruktiv jihatlarini kuchaytirishi, raqamli muhitning destruktiv ta'sirlarini esa pedagogik profilaktika va raqamli savodxonlik vositalari orqali kamaytirish imkonini beradi.

Shunday qilib, kiberijtimoiylashuvning mohiyati talabaning virtual makonda mavjud bo'lishi bilangina belgilanmaydi. U talabaning raqamli muhit bilan faol o'zaro ta'siri natijasida ijtimoiy tajribasi, ehtiyojlari, qadriyatlari, identifikatsiyasi, kommunikativ strategiyalari va faoliyat shakllarining transformatsiyasini ham qamrab oladi. Shu sababli kiberijtimoiylashuvni zamonaviy jamiyatda shaxs rivojlanishining

muqarrar yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganish, uning ijobiy imkoniyatlarini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash va ehtimoliy salbiy oqibatlarini oldindan aniqlash dolzarb ilmiy vazifalardan biridir. Yuqoridagi nazariy yondashuvlarni umumlashtirish talabning kiberijtimoiylashuvini bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir nechta tarkibiy komponentlar orqali tavsiflash imkonini beradi. Mazkur komponentlar talabning raqamli muhitdagi kommunikativ faoliyati, axborot bilan ishlashi, qadriyat va motivatsiyalarining shakllanishi, raqamli identifikatsiyasi hamda amaliy faoliyatini qamrab oladi. Shu asosda muallif tomonidan talabning kiberijtimoiylashuvini tavsiflovchi besh tarkibiy komponentdan iborat ijtimoiy-pedagogik model taklif etiladi.

Birinchisi, kommunikativ komponent bo'lib, talabning virtual muloqot, tarmoqli hamkorlik va raqamli kommunikatsiyaning turli shakllarini o'zlashtirishini ifodalaydi. Talaba ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, virtual hamjamiyatlar, videokonferensiyalar va boshqa raqamli kommunikatsiya vositalari orqali turli shaxslar va ijtimoiy guruhlar bilan muloqotga kirishadi. Natijada uning fikr almashish, hamkorlik qilish, o'z pozitsiyasini ifodalash va boshqa shaxslarning nuqtayi nazarini tushunish bilan bog'liq kommunikativ tajribasi kengayadi.

Ikkinchisi, axborot-kognitiv komponent bo'lib, talabning raqamli muhitda axborotni izlash, tanlash, tekshirish, tahlil qilish, baholash va qayta ishlash qobiliyatlarini qamrab oladi. Internetdagi axborot hajmining keskin ortishi sharoitida talabning ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlashi, manipulyativ yoki noto'g'ri axborotni aniqlashi hamda olingan ma'lumotlardan ongli foydalanishi kiberijtimoiylashuvning muhim shartlaridan biriga aylanadi.

Uchinchisi, qadriyat-motivatsion komponent bo'lib, raqamli muhitda mavjud bo'lgan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar, xulq-atvor qoidalari va motivlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq. Talaba turli raqamli va ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro ta'sir jarayonida muloqot madaniyati, raqamli etika, o'zaro hurmat, bag'rikenglik, ijtimoiy mas'uliyat va axborotdan foydalanish me'yorlarini egallaydi. Shu bilan birga, raqamli

muhitda uchraydigan destruktiv qadriyat va xulq-atvor modellariga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish ham mazkur komponentning muhim jihatini tashkil etadi.

To'rtinchi bilganini amalda bajara olish va natija ko'rsatish komponenti bo'lib, talabaning raqamli muhitda faol subyekt sifatida ishtirok etishini tavsiflaydi. Bunda talaba tayyor axborotni iste'mol qilish bilan cheklanmay, raqamli mahsulotlar yaratadi, virtual loyihalarda ishtirok etadi, onlayn hamkorlikni amalga oshiradi, ijtimoiy tashabbuslarni ilgari suradi va o'z faoliyatini raqamli vositalar yordamida tashkil etadi. Natijada raqamli kompetensiyalar bilan bir qatorda mustaqillik, tashabbuskorlik, mas'uliyat va ijtimoiy faollik kabi sifatlar ham rivojlanishi mumkin.

Shunday qilib, taklif etilayotgan modelda kommunikativ, axborot-kognitiv, qadriyat-motivatsion, identifikatsion va kompetensiyaviy komponentlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, talabaning virtual muloqotdagi ishtiroki uning axborotni baholash qobiliyatiga, o'z navbatida, axborot bilan ishlash tajribasi uning qadriyatlari va qarorlariga, mazkur jarayonlarning barchasi esa raqamli identifikatsiyasi va faoliyat strategiyalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XULOSA

Biroq kiberijtimoiylashuvning natijalari har doim ham konstruktiv xarakterga ega bo'lavermaydi. Raqamli muhit bilan o'zaro ta'sirning mazmuni, davomiyligi, foydalanish maqsadi, shaxsning o'zini o'zi boshqarish darajasi va ijtimoiy-pedagogik sharoitlariga qarab uning salbiy oqibatlari ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda kiberijtimoiylashuvning destruktiv yo'nalishlari sifatida kiberqaramlik, destruktiv kontent ta'siri, deviant xulq-atvor modellarini o'zlashtirish, kiberagressiya, ijtimoiy izolyatsiya hamda virtual va real ijtimoiy hayot o'rtasidagi muvozanatning buzilishi namoyon bo'lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, kiberijtimoiylashuvning pedagogik samaradorligini faqat talabaning raqamli muhitdan foydalanish darajasi bilan emas, ushbu muhitdagi

faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va natijasi bilan baholash lozim. Konstruktiv kiberijtimoiylashuvda raqamli tajriba talabani real ijtimoiy faoliyatini boyitadi, uning kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda mustaqil, mas'uliyatli va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Aksincha, virtual tajriba real ijtimoiy munosabatlarni siqib chiqara boshlagan holatda kiberijtimoiylashuvning kvazijtimoiylashuvga aylanish xavfi ortadi.

Demak, talabani kiberijtimoiylashuvini kommunikativ → axborot-kognitiv → qadriyat-motivatsion → identifikatsion → faoliyat-kompetensiyaviy komponentlarning o'zaro ta'siri asosida kechuvchi dinamik ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida ko'rish mumkin.

Bu komponentlarning uyg'un rivojlanishi kiberijtimoiylashuvning konstruktiv natijalarini kuchaytirsa, ularning buzilishi yoki salbiy raqamli ta'sirlar bilan ustunlashishi destruktiv oqibatlar va kvazijtimoiylashuv xavfini oshiradi.

Virtual dunyoda kechadigan ijtimoiylashuv jarayoni talabani turli ijtimoiy rollar, xulq-atvor strategiyalari va kommunikativ modellarni sinab ko'rish uchun o'ziga xos tajriba maydoni bo'lib xizmat qiladi. Virtual muhit unda qaror qabul qilish, hamkorlik qilish, o'z faoliyatini baholash va yangi ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish imkonini beradi. Biroq virtual tajriba real hayotdagi ijtimoiy faoliyatni siqib chiqargan taqdirda, kiberijtimoiylashuvning destruktiv yo'nalishlari kuchayishi mumkin.

Shu sababli kiberijtimoiylashuv jarayonida talabani erkin, mustaqil fikrlaydigan va mas'uliyatli raqamli subyekt sifatida shakllanishiga e'tibor qaratish muhimdir. Internetning anonimlik, kommunikativ masofa va axborotning tezkor tarqalishi kabi xususiyatlari raqamli muhitda erkinlik va mas'uliyat uyg'unligini ta'minlashni talab etadi. Talaba o'z harakatlarining boshqa shaxslar va ijtimoiy muhitga ta'sirini anglagan holda raqamli muloqot va faoliyatni amalga oshirishi lozim.

Internet kommunikatsiyasining o'ziga xos shakllari shaxsning o'zini anglash jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi yangi madaniy vositalar sifatida ham namoyon

bo'lmoqda[3:38]. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya vositalari matnli muloqot, vizual kontent, qisqa videolar va boshqa raqamli vizual media vositalari talabanning o'zini ifodalash va ijtimoiy mansubligini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan kiberkommunikatsiya texnik aloqa vositasigina emas, talabanning o'zini anglash, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish va boshqa guruhlar bilan identifikatsiya qilishiga ta'sir etuvchi madaniy-kommunikativ muhit sifatida namoyon bo'ladi. Kiberijtimoiylashuvning mazmuni va natijasi talabanning individual xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi, ehtiyojlari, qadriyatlari va raqamli savodxonligiga bog'liq bo'ladi. Shu bois uning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishda individual-differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, kiberijtimoiylashuvni zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida shaxsning real va virtual ijtimoiy tajribalarni o'zaro uyg'unlashtirish jarayoni sifatida baholash mumkin. Uning konstruktiv yo'nalishi shaxsga mustaqil fikrlash, tanlov qilish, kommunikativ tajriba orttirish, yangi ijtimoiy rollarni sinab ko'rish, bilim va madaniy resurslardan foydalanish hamda o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Virtual muhitning real hayot o'rnini bosishi, ijtimoiy aloqalarning torayishi yoki destruktiv xulq-atvor modellarining o'zlashtirilishi kiberijtimoiylashuvning kvazijtimoiylashuvga aylanish xavfini yuzaga keltiradi.

Demak, virtual olam talabanning zamonaviy ijtimoiylashuvi kechadigan yangi makon sifatida qabul qilish, undagi ijtimoiylashtiruvchi va tarbiyaviy imkoniyatlardan maqsadli foydalanish hamda shaxsning real hayotdagi ijtimoiy faoliyatini virtual tajriba bilan uyg'unlashtirish zamonaviy ijtimoiy-pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Bunda asosiy maqsad talabani virtual muhitga shunchaki moslashtirish emas, uni raqamli makonda erkin, ongli, mas'uliyatli va ijtimoiy jihatdan faol subyekt sifatida shakllantirishdan iborat bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айсина Р.М., Нестерова А.А. Киберсоциализация молодежи в информационно-коммуникационном пространстве современного мира: эффекты и риски // Социальная психология и общество. 2019. Т. 10, № 4. С. 42-57. doi: 10.17759/sps.2019100404.
2. Мудрик А.В. Социализация человека. – М., 2007.
3. Плешаков Владимир Андреевич Киберсоциализация как инновационный социально-педагогический феномен // Преподаватель XXI век. 2009. №3-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kibersotsializatsiya-kak-innovatsionnyy-sotsialno-pedagogicheskiy-fenomen> (дата обращения: 27.08.2026).